

BOLALARDA ONGNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ablamitova Mamuraxon Inomjonovna

Asaka tumani 35-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bolalarda ongning rivojlanish bosqichlari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda har bir yosh davriga xos psixologik xususiyatlar yoritilgan. Shuningdek, bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida ongning tutgan o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ong, bola shaxsi, psixik rivojlanish, tafakkur, idrok, xotira, nutq, yosh davrlari, psixologik xususiyatlar, rivojlanish.

KIRISH

Inson ongining shakllanishi va rivojlanishi murakkab psixologik jarayon bo'lib, u bolalik davridan boshlanadi va butun hayot davomida takomillashib boradi. Ong insonning borliqni anglash, o'z faoliyatini boshqarish, atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni idrok etish hamda o'ziga va boshqalarga nisbatan munosabat bildirish qobiliyatini ifodalaydi. Bolalarda ongning rivojlanishi biologik omillar bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya, muloqot va ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi.

Bolaning hayotining dastlabki yillarida ongning rivojlanishi sezgi va idrok jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Go'daklik davrida bola atrof-muhitni asosan sezgilar orqali qabul qiladi. U tovushlar, ranglar, hidlar va harakatlarga munosabat bildiradi. Ushbu davrda ongning rivojlanishi hissiy tajribalar va kattalar bilan muloqot orqali amalga oshadi.

Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanishi ong taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi. Bola so'zlar yordamida predmetlarni nomlay boshlaydi, oddiy fikrlarni ifodalaydi va atrofdagi voqelikni anglash imkoniyatlari kengayadi. Nutqning rivojlanishi tafakkur jarayonlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu davrda bola o'z harakatlarini ongli ravishda boshqarishga va mustaqil faoliyat yuritishga intiladi.

Maktabgacha yosh davrida bolaning tasavvuri, xotirasi va tafakkuri jadal rivojlanadi. U o'yin faoliyati orqali ijtimoiy tajribalarni o'zlashtiradi, atrofdagi insonlarning xatti-harakatlarini kuzatadi va ularga taqlid qiladi. Mazkur davrda bolalarda qiziquvchanlik kuchli bo'lib, ular ko'plab savollar berish orqali dunyoni anglashga harakat qiladilar. Bu esa ong rivojlanishining muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Kichik maktab yoshida ta'lim faoliyati bolaning ong rivojlanishida yetakchi omilga aylanadi. O'quv faoliyati natijasida bilimlar hajmi kengayadi, mantiqiy tafakkur shakllanadi va o'z faoliyatini nazorat qilish qobiliyati rivojlanadi. Bolalar sabab-oqibat bog'lanishlarini tushuna boshlaydilar, o'z fikrlarini asoslash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

O'smirlik davrida ong rivojlanishi yangi bosqichga ko'tariladi. Bu davrda abstrakt tafakkur shakllanib, o'smirlar murakkab tushunchalar ustida fikr yurita boshlaydilar. O'zini anglash, o'z qobiliyatlari va imkoniyatlarini baholash jarayoni kuchayadi. Shuningdek, shaxsiy qarashlar, e'tiqodlar va hayotiy maqsadlar shakllana boshlaydi. O'smirlar mustaqillikka intiladilar va o'z shaxsiga nisbatan yuqori qiziqish bildiradilar.

Ong rivojlanishiga oilaviy muhit, ta'lim sifati va ijtimoiy munosabatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Mehribon va qo'llab-quvvatlovchi muhitda tarbiyalanayotgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch, mustaqillik va ijobiy dunyoqarash tezroq shakllanadi. Aksincha, salbiy muhit bolaning psixik rivojlanishiga va ong shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Psixologik nuqtai nazardan ong rivojlanishi bolaning shaxs sifatida shakllanishining asosi hisoblanadi. Ong orqali bola o'z xatti-harakatlarini boshqaradi, ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtiradi va atrofdagi insonlar bilan samarali munosabatlar o'rnatadi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Ong- psixik faoliyatning oliy shakli. U faqat insonga xos fenomendir. Ong, uning mohiyati masalasi eng qadimgi muammolardan biri. Ongni dastlab diniy va mifologik qarashlar doirasida tushuntirishga uringanlar. Ongni diniy tushuntirish uni ilohiy hodisa, Xudo yaratgan mo'jiza tarzida talqin qilishga asoslanadi. Ko'pgina dinlarda inson ongi

buyuk ilohiy aqlning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qad. bo'lsada, ular hamon o'zining ko'plab tarafdorlariga ega. Kimki olam va odam yaratilganligini tan olar ekan, ong ham yaratganning qudrati deb hisoblaydi.

Ongning mohiyatini izohlashda ikkinchi yo'nalish-bu ong moddiy olamni inson miyasida aks etishi deb tushunish, uni inson tanasi faoliyati bilan bog'lab talqin etishdir. Ayni vaqtda materialistik yo'nalish nomini olgan bunday yondashuvlar doirasida ongning mohiyatini buzib talqin qilish hollari ham paydo bo'ldi. Vulgar materializm deb nom olgan oqim namoyandalarining fikricha, xuddi jigar saf-roni ishlab chiqargani kabi, miya ham ongni ishlab chiqarar emish. Bunday yondashuv natijasida ong ideal emas, moddiy hodisa degan xulosa kelib chiqadi. Vaholanki, safroni ko'rish mumkin, ammo ongni ko'rib ham, ushlab ham bo'lmaydi. Aslida ong tarixi insonning inson bo'lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog'liqdir. Inson ham biologik, ham ijtimoiy mavjudot ekan, demak, ong ham biologik va ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Ong insonning fikr va hislari, sezgilari, tasavvurlari, irodasi va karashlaridan tashkil topgan. O'z-o'zini anglash, xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlaridir.

Hozirgi zamon fani ong materiyaninguzoq davom etgan evolyusiyasining natijasi ekanligini tan oladi. Materiya, tabiat hamma vaqt mavjud bo'lib kelgan, inson esa moddiy dunyoning nisbatan so'nggi taraqqiyotining mahsulidir. Materiya taraqqiyoti, fikrlay oladigan insonning paydo bo'lishi uchun bir necha million yillar kerak bo'lgan. Ong tabiat taraqqiyoti mahsuli, materiyaning xossasidir, barcha materiyaning emas, balki oliy darajada tashkil topgan materiyaning, ya'ni inson miyasining mahsulidir. Lekin ongning bo'lishi uchun miyaning o'zigina bulishi yetarli emas. Ong insonni qurshab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'langan va shu muhitning ta'sirida faoliyat ko'rsata oladi.

Hozirgi zamonda murakkab ijodiy jarayonlarni ham amalga oshiruvchi elektron mashinalar yaratilgan, lekin ular ongning o'rnini bosa olmaydi, chunki ong o'ta murakkab obyektiv mavjudlikdir.

Psixika (qadimgi yunoncha psychikos-“ruhiy”) yoki ruhiyat yuksak darajada tashkil topgan materiya (miyya)ning voqelikni alohida shaklida aks ettirishdan iborat xususiyati.

Ong- psixik faoliyatning oliy shakli ong bu insonni boshqa tirik mavjudotlardan farqlab, ajratib turadigan muhim narsa.

Inson yaralibdiki ong mavjud va rivojlanib keladi. Men ong haqida va uning paydo bo'lishi haqida shuni aytamanki inson ongi uni rivojlanishlar, yuksalishlar sari eltadi. Faqatgina inson o'z ongini yangilab, charxlab ya'ni uni ilm nurlari bilan chayib turmog'i kerak. Insonning ongi qanchalik yangi g'oyalarga boy bo'lsa , bu jamiyat, dunyo rivojlanishiga ulkan bir hissa qo'shishi mumkin.

Ongning paydo bo'lishi bilan bog'liq ko'plab qarashlar mavjud. Bu qarashlarning bir tomoni diniy, qarashlar doirasidagi mifologik nazariyalarga borib taqaladi. Bunday turdagi nazariyalar qadimdan insonni bir ilohiy kuch yaratgan, bu ilohiy kuch inson ongini ham yaratgan degan fikrlarni ifodalaydi. Ko'pgina dinlarda inson ongi buyuk ilohiy aqilning namoyon bo'lish shakli tarzida tavsiflanadi. Bunday qarashlarning ildizi juda qad bo'lsada ular hamon o'z tarafdorlariga ega.

Ong insonning fikr va hislari, sezgilari tasavvurlari, irodasi va qarashlaridan tashkil topgan . O'z-o'zini anglash xotira, iroda, nutq ongning asosiy jihatlari. Ong o'ta murakkab obyektiv mavjudligidir. Hozirgi kunda insonlar ongni materiyaning uzoq davom etgan evakuatsiyasining natijasi deb hisoblashmoqda. Materiya, tabiat har doim mavjud bo'lib kelgan inson esa moddiy dunyoning nisbatan so'ngi taraqqiyotining mahsulidir. Ong esa ushbu mahsulning eng kerakli nuqtasi. Ong nafaqat insonni balki inson atrofini o'rab turgan butun olam rivojining markazidir.

Insonsiz olamni tasavvur etib bo'lmaganidek insonni ongsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Psixika materiya taraqqiyotining muayyan bosqichda – tirik organizmlarda sezuvchanlikning alohida shakli yoki his qilish qobiliyatining paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Tirik mavjudotlarning morfologik, fiziologik tuzilishi murakkablashivu unda nerv sistemasining vujudga kelishi va taraqqiy etishi bosh miyya, uning katta yarim sharlarining shakllanishi va takomillanishi jarayonida rivojlangan. Inson ongi insonning ehtiyojlarini bartaraf etish jarayonida rivoj topadi. Madaniy-tarixiy yondashuvga ko'ra ongning o'ziga xos xususiyati shundaki, ijtimoiy-tarixiy amaliyot elementlari obyektiv

voqelik va ong o'rtasidagi oraliq bo'g'in bo'lib dunyo haqidagi obyektiv g'oyalarni shakllantirishga imkon beradi.

Ong mohiyatini to'g'ri tushinish uni ko'rib chiqishi lozim. Ong quyidagi to'rt muhim psixologik xarakteristikasi bilan aniqlanadi. Ongning birinchi xarakteristikasi uning nomini aks ettiragan ong, anglashdir. Ongning ikkinchi xarakteristikasi unda sub'ektiv va obyektiv farqlanadi. Ongning uchinchi xarakteristikasi maqsad qo'yish va maqsadga yo'nalganlik bilan belgilanadi. Ongning to'rtinchi xarakteristikasi unda odamning ma'lum munosabatlari aks etishi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolalarda ongning rivojlanishi bosqichma-bosqich amalga oshadigan murakkab jarayon bo'lib, u sezgi, idrok, nutq, tafakkur va ijtimoiy tajribalarning boyib borishi bilan uzviy bog'liqdir. Har bir yosh davri o'ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, ular bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim o'rin tutadi. Sog'lom oilaviy muhit, sifatli ta'lim va to'g'ri tarbiya bolaning ongli, mustaqil va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. P.I.Ivanov.M.E.Zufarova Umumiy Psixologiya
2. G'oziyev E "Umumiy psixologiya" 1-kitobi Toshkent 2004
3. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O „SMIRLARNING SOG„LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
4. Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG „LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 32-35.